

O'QUV DASTUR PASPORTI

O'quv dastur uzluksiz tibbiy va farmasevtik ta'lim muvofiqlashtiruvchi kengashning 2023 yil 21 avgustdagi Sog'liqni saqlash vazirligining 2023 yil 26 iyuldagi null – 19325 sonli ko'rsatma xati asosida tasdiqlangan.

Amal qilish muddati 2026 yil gacha

Ta'lim muassasasi nomi	Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi
Kafedra/ bo'lim	Oilaviy tibbiyot kasb kasalliklari kursi bilan
O'quv dastur nomi	“Birlamchi tibbiy sanitariya yordami muassasalarida davlat tibbiy sug'urta mexanizmlarini joriy qilishda tibbiy brigada faoliyati hamda eng ko'p tarqalgan kasalliklar va xolatlar bo'yicha tibbiy xizmat ko'rsatish“
O'qish turi	Mavzuviy malaka oshirish
O'quv dastur muallifi/ mualliflari	G'.S. Xalimbetov, R.K. Salixodjayeva, D.A. Xasanova, R.A. Nurmuxamedova, M.S.Masharipova.
Siklning umumiy soati	72 kredit

Siklda dars beradigan o'qituvchi va trenerlar



DSc., dotsent,
G'.S. Xalimbetov



PhD., dotsent
D.A. Xasanova.



t.f.d., dotsent
R.A. Nurmuxamedova



PhD, dotsent
M.S. Masharipova



Assistent
F.R. Kdirbaeva

Maqsad

Birlamchi tibbiy sanitariya muassasalari amaliyotida mutlaqo yangi mexanizmlarini hamda sog'liqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi modelini eng ko'p taqalgan kasalliklar va holatlarni hisobga olgan xolda davlat tibbiy sug'urtasi asoslarini joriy etish natijasida, aholi orasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish, tibbiy madaniyatini oshirish orqali ko'rsatiladigan tibbiy yordam samaradorligini va sifatini oshirish hamda salomatlik ko'rsatkichlarini yaxshilash.

**Siklga taklif qilingan
mutaxassislar - kontingent**

Barcha sog'liqni saqlash sohasi xodimlari, birlamchi tibbiy sanitariya yordami muassasalari shifokorlari, shu jumladan oilaviy shifokorlar, tor soha shifokorlari, amaliyotchi hamshiralar, oilaviy hamshiralar, doya hamshiralar, bakalavriat, magistratura va klinik ordinatura (rezidentura) bitiruvchilari.

Sikl vazifalari

Tibbiyot xodimlarining bilim va ko'nikmalarini takomillashtirish orqali sog'liqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi modeli va davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlarini amaliyotga joriy etishda ko'maklashish.

- Tibbiy profilaktika va patronaj tizimining mutlaqo yangi tizimini joriy qilish mexanizmlarini o'zlashtirish.
- Sog'lom turmush tarzini va tibbiy madaniyatni shakllantirish, aholi jamoat salomatligini ta'minlash tamoyillarini bilish;

- Aholi orasida eng ko‘p taqalgan kasalliklar va holatlarni hisobga olgan xolda ularni salomatlik guruhlariga ajratish, sog‘lom va bemorlarni profilaktik va dispanser kuzatuvini olib borishni tashkillashtirish ko‘nikmalarini yangilash.
- Tibbiy qo‘rik va davriy kuzatuvlar muddatlarni, maqsadli skrining, ko‘riklar va xonadon patronaj tizimini o‘rgatish.
- Tibbiyot brigadalarni tartibi, maqsadi va vazifalarini bilish.
- Tibbiy xatlovni tamoyillari va elektron tizimini shakllantirishni o‘rgatish.
- Antropometrik o‘lchov, tekshiruv ko‘nikmalarini shakllantirish va olingan natijasiga ko‘ra interpretatsiya qilishga o‘rgatish;
- To‘g‘ri ovqatlanish, jismoniy faollik va zararli odatlar to‘g‘risida maslahat berish asosiy tamoyillarini o‘rgatish.
- Tibbiyot xodimlarida hayotiy va ilmiy tasavvurni shakllantirishda milliy-ma‘naviy qadriyatlarimizni insonparvarlik mohiyatini ko‘rsatish asosida, tibbiyot xodimlarining qalbi va ongiga singdirish.
- Zamonaviy klinik protokollar va standartlar bilan tanishtirib, ular asosida ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish;
- Ona va bola salomatligini saqlashdagi profilaktika ishlari bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish;
- Yangi patronaj modelini chukur tushunilishi hamda samarali amalga oshirilishini ta‘minlash,
- Oila farovonligi va bolaning rivojlanishiga ta‘sir qiluvchi omillar, ya‘ni ota-onaning bolaga bo‘lgan munosabati, otaning yoki onaning ruhiy tushkunligi, oilada notinch munosabatlarning mavjudligi, ijobiy tarbiyaning yo‘qligi kabi holatlarni baholash bo‘yicha tinglovchilar kasbiy maxorati va nazariy bilimlarini oshirish;
- Bolalar salomatligi, rivojlanishi va

	himoyasini ta'minlash yo'lida oilalarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha patronaj tizimini rivojlantirish bo'yicha bilim va ko'nikmalarini shakllantirish; – Ko'p uchraydigan asosiy homiladorlikdagi patologik holatlar va ularga olib keluvchi havf omillarini erta aniqlash mahoratini oshirish
Sikl tarkibi	1 modul. Birlamchi tibbiy sanitariya yordami muassalarda davlat tibbiy sug'urta mexanizmlarini, tibbiy brigada faoliyatini joriy etish bo'yicha normativ huquqiy hujjatlar. 2 modul. Asosiy yuqumli bo'lmagan kasalliklar bo'yicha klinik protokollarini BTTYOM amaliyotiga joriy etish to'g'risida (AG va QD). 3 modul. Homilador ayollar, oila, chilla davridagi ayol va ilk yoshdagi bolalarda xavf omillarini aniqlashda patronajning universal progressiv modelini amaliyotga tabiiq etish. 4 modul. Birlamchi tibbiy sanitariya yordami muassalarda eng ko'p tarqalgan kasalliklar.
O'qish bazalari	48 Oilaviy poliklinika, Toshkent shahri, Shayxontoxur tumani, Abay ko'chasi 5 uy. Hamda sayyor sikllarda belgilangan o'qiv bazalarida.



